Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-APREL OYLARI MA’LUMOTLARI*



Sanoat statistikasi bo’limi
Tel.: 67-236-86-23

# Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-aprel oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3671,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 114,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (49,0 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1797,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




***B*** *– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C*** *– Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D*** *– Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E*** *– Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 24,5 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-aprel oylarida, % da)*




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1840,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 50,1 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**,
*(yanvar-aprel oylarida, % da)*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,8 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 4,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 3,4 % (2021- yilning yanvar–aprel oylarida – 4,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,7 % (2021- yilning yanvar–aprel oylarida –19,4 %) va quyi texnologiyalisi – 72,1 % (2021- yilning yanvar–aprel oylarida –71,6 %) ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**Quyi texnologiyali**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Aroq, ming litr 100 % spirt** | 171,4 | 97,5 | -73,9 |
| **Sellyuloza, kg 90%** | 500355 | 2279794 | 1779439 |
| **Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan gormonlar va antibiotiklar, t** | 1768,0 | 584,1 | -1183,9 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 18,9 | 25,0 | 6,1 |
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 7,0 | 9,8 | 2,8 |

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,4 % ni, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,0 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 479,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 12,6 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 7,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 137,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 133,2 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 576,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*




2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni, fizik hajm indeksi 105,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 82,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 % ni, fizik hajm indeksi 143,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 150,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-aprel oylarida*

mlrd. so‘m







FHI *% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1797,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (49,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,7 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-aprel oylarida, % da)*

2021- y.







2022- y.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 5946,0 | 6347,3 | 401,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 55,1 | 54,6 | -0,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-aprel oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-aprel oylarida, % da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 15295,8 | 12980,0 | -2315,8 |
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 746,0 | 2859,0 | 2113,0 |
| **Shahar ho‘jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 3652,2 | 5175,3 | 1523,1 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1345,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib 36,5 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,2 % ni, Guliston tumani 10,7 % ni hamda Mirzaobod tumani 9,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyatning o‘sish sur’ati (122,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mirzaobod tumani (237,3 %), Guliston tumani ( 171,3 %), Sirdaryo tumani (119,2 %), Xovos tumani (113,4 %), Sardoba tumani (110,4 %), Sayxunobod tumani (110,2 %) hamda Yangiyer shahrida (108,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 1345,9 | 100 | 122,7 |
| Guliston sh | 231,7 | 17,2 | 105,4 |
| Sardoba | 33,0 | 2,5 | 110,4 |
| Shirin sh | 8,4 | 0,6 | 104,6 |
| Sayxunobod | 66,3 | 4,9 | 110,2 |
| Yangiyer sh | 97,0 | 7,2 | 108,6 |
| Sirdaryo | 490,4 | 36,5 | 119,2 |
| Boyovut | 66,0 | 4,9 | 103,2 |
| Xovos | 59,1 | 4,4 | 113,4 |
| Guliston | 144,5 | 10,7 | 171,3 |
| Mirzaobod | 124,6 | 9,3 | 237,3 |
| Oqoltin | 24,9 | 1,8 | 99,8 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib, 42,2 % shuningdek, Guliston shahri 14,1 %, Guliston tumani 14,5 % va Mirzaobod tumani 11,6 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 897,3 | 100 | 143,5 |
| Guliston sh | 126,3 | 14,1 | 121,0 |
| Sardoba | 9,0 | 1,0 | 98,9 |
| Shirin sh | 2,8 | 0,3 | 114,6 |
| Sayxunobod | 9,9 | 1,1 | 135,7 |
| Yangiyer sh | 80,6 | 9,0 | 111,6 |
| Sirdaryo | 379,4 | 42,2 | 133,4 |
| Boyovut | 18,9 | 2,1 | 116,2 |
| Xovos | 28,0 | 3,1 | 150,9 |
| Guliston | 129,7 | 14,5 | 185,1 |
| Mirzaobod | 104,0 | 11,6 | 324,3 |
| Oqoltin | 8,7 | 1,0 | 102,0 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib 24,7 % ni, shuningdek, Guliston shahri 23,5 %, Sayxunobod 12,6 %, Boyovut tumanlari 10,5 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 448,6 | 100 | 95,2 |
| Guliston sh | 105,4 | 23,5 | 91,3 |
| Sardoba | 24,0 | 5,4 | 115,4 |
| Shirin sh | 5,6 | 1,2 | 100,2 |
| Sayxunobod | 56,3 | 12,6 | 106,7 |
| Yangiyer sh | 16,4 | 3,7 | 96,1 |
| Sirdaryo | 110,9 | 24,7 | 87,3 |
| Boyovut | 47,1 | 10,5 | 98,7 |
| Xovos | 31,3 | 6,9 | 92,7 |
| Guliston | 14,8 | 3,3 | 103,7 |
| Mirzaobod | 20,6 | 4,6 | 101,0 |
| Oqoltin | 16,2 | 3,6 | 98,7 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar- aprel oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 593,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.

# Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 3671,4 | 100,0 | 114,2 |
| Guliston sh | 328,3 | 8,9 | 100,5 |
| Sardoba | 33,2 | 0,9 | 103,8 |
| Shirin sh | 1727,5 | 47,1 | 114,3 |
| Sayxunobod | 114,7 | 3,1 | 93,1 |
| Yangiyer sh | 163,8 | 4,5 | 95,8 |
| Sirdaryo | 665,1 | 18,2 | 121,0 |
| Boyovut | 211,8 | 5,8 | 115,8 |
| Xovos | 62,2 | 1,7 | 106,0 |
| Guliston | 145,0 | 3,9 | 115,4 |
| Mirzaobod | 130,0 | 3,5 | 121,6 |
| Oqoltin | 89,8 | 2,4 | 71,9 |

**Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,1 %), Sirdaryo tumani (18,1 %), Guliston shahri (8,9 %), Boyovut tumani (5,8 %), va Yangiyer shahri (4,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Oqoltin (2,4 %) hamda Sardoba (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (90628,1 ming so'm), Sirdaryo tumanida (5014,1 ming so'm) hamda Guliston shahrida (3488,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4168,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1528,0 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida – 3696,3 ming so'mni, Guliston shahrida – 2462,2 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 2135,4 ming so'mni, Mirzaobod tumanida – 1613,5 ming so'mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | 4168,2 | 1528,0 |
| **Guliston sh** | 3488,3 | 2462,2 |
| **Sardoba** | 484,8 | 482,4 |
| **Shirin sh** | 90628,1 | 440,4 |
| **Sayxunobod** | 1429,8 | 826,2 |
| **Yangiyer sh** | 3605,5 | 2135,4 |
| **Sirdaryo** | 5014,1 | 3696,3 |
| **Boyovut** | 1577,0 | 491,8 |
| **Xovos** | 627,5 | 595,8 |
| **Guliston** | 1903,9 | 1897,2 |
| **Mirzaobod** | 1683,9 | 1613,5 |
| **Oqoltin** | 1659,3 | 459,7 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 863,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xovos (79,7 %), Sayxunobod tumanlarida (77,4 %) hamda Yangiyer shahrida (61,9 %) kuzatildi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub'yektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki Oqoltin tumanida (30,2 %), Sirdaryo tumani (36,4 %), Yangiyer shahri (61,9 %) va Guliston (27,2 %) tumanlarida hamda Shirin shahrida (0,5 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## **Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2022- yil 1- may holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 2191 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 535 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Guliston shahriga, 367 tasi (16,8 %) Sirdaryo tumaniga, 190 tasi (8,7 %) Yangiyer shahriga, 189 tasi (8,6 %) Boyovut tumaniga, 178 tasi (8,1 %) Mirzaobod tumaniga, 164 tasi (7,5 %) Sayxunobod tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 140 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 30 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi (21,4 %) Guliston shahrida, 22 tasi (15,7 %) Sayxunobod, 15 tasi (10,7 %) Mirzaobod, 13 tasi (9,3 %) Boyovut hamda 5 tasi (3,6 %) Xovos tumanlarida tashkil etildi.